



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “30” aprel

BUYRUQ № 43

Toshkent sh.

“Ta’lim statistikasi bo’yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to’g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, ta’lim statistikasi bo’yicha xalqaro amaliyotidan kelib chiqib, statistika uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Ta’lim statistikasi bo’yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo’mitasining 2022- yil 26- yanvardagi “Ta’lim statistikasi bo’yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to’g’risidagi 2- son qarori o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024- yil “30” apreldagi
73- son buyrug‘iga
ILOVA

Ta’lim statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom

Ta’lim statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom (keyingi o‘rinlarda – Uslubiy nizom deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining holati va rivojlanishi to‘g‘risidagi statistika hisobini yuritilishini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomda ta’lim tizimi sohasida statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi, ma’lumotlar manbalari, rasmiy statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun qo‘llaniladigan tasniflar, asosiy tushunchalar, atamalar va ularning ta’riflari, alohida statistika ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari va rasmiy statistika axborotini tarqatish to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida, statistika ma’lumotlarining sifati va ishonchliligini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirish doirasida joriy etilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizom GSBPMning yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bosqichlariga tegishli jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Uslubiy nizomni tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, MDH Statistika qo‘mitasining tavsiyalari, MDH davlatlari tajribalaridan foydalanildi.

Shuningdek, Ushbu nizom xalqaro standartlar YUNESKO statistika instituti (YUSI) tomonidan tayyorlangan “Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (International Standard Classification of Education (ISCED–2011), “Ta’lim sohalari va kasbiy tayyorgarlik” (TXST–0 2013) va “Rasmiy ta’lim haqida umumiy ma’lumot berish bo‘yicha qo‘llanma”)ga asoslangan.

2. Ushbu Uslubiy nizamda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi:

ta'lim statistikasi – ta'lim sohasida yuz beradigan hodisa va jarayonlarni miqdoriy va sifat jihatidan o'rganuvchi statistika sohasi hisoblanadi;

ta'lim statistikasining asosiy vazifasi, foydalanuvchilarga ta'lim tizimi holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistika ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etishdan iborat;

ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim tizimi:

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;

ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek, ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi;

ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir;

ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim va tarbiya;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

professional ta'lim;

oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta'lim.

maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi;

umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim – umumtaʼlim oʻquv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda koʻnikmalarni oʻzlashtirishga qaratilgan.

3. Umumiy oʻrta taʼlim (I – XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlangʻich taʼlim (I – IV sinflar);

tayanch oʻrta taʼlim (V – IX sinflar);

oʻrta taʼlim (X – XI sinflar);

umumiy oʻrta taʼlim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar yetti yoshga toʻladigan yilda qabul qilinadi;

4. Boshlangʻich taʼlim – taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

5. Tayanch oʻrta taʼlim – oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilarga bilim, malaka va koʻnikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch oʻrta – taʼlim doirasida (VII sinfdan soʻng) taʼlim oluvchilarda kasblar boʻyicha birlamchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha choralar amalga oshiriladi.

Oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalar oʻzlashtirilishini, shuningdek, taʼlimning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini taʼminlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish, shuningdek, taʼlim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

6. Umumiy oʻrta taʼlim — umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy boʻlgan oʻn bir yil davomida amalga oshiriladi.

7. Oʻrta maxsus taʼlim akademik litseylarda toʻqqiz yillik tayanch oʻrta taʼlim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va taʼlim oluvchilar intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek, chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim olishini taʼminlaydi.

8. Nodavlat taʼlim tashkilotlarida umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim toʻlov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

9. Iqtidorli va isteʼdodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek, maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

10. Jismoniy, aqliy, ssor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

11. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

12. **Professional ta'lim** – Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;

o'rta professional ta'lim;

o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida, davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

13. **Oliy ta'lim** – Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlari (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar)da amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek, ushbu qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik

umumiy oʻrta va uch yillik oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi) olgan shaxslar oliy maʼlumot olish huquqiga ega.

Oliy taʼlim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat – oliy taʼlim yoʻnalishlaridan biri boʻyicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va koʻnikmalar beradigan, oʻqish davomiyligi kamida uch yil boʻlgan tayanch oliy taʼlimdir.

Magistratura – tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik boʻyicha oʻqish davomiyligi kamida bir yil boʻlgan oliy taʼlimdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq boʻlgan bakalavriat taʼlim yoʻnalishlarining roʻyxati taʼlim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy maʼlumotni olish huquqiga ega.

14. Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim – oliy taʼlimdan keyingi taʼlimni oliy taʼlim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur oʻrganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni taʼminlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy) (PhD) ilmiy darajasiga daʼvogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi boʻyicha oliy taʼlimdan keyingi taʼlim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science) (DSc) ilmiy darajasiga daʼvogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi boʻyicha oliy taʼlimdan keyingi taʼlim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy) (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science) (DSc) ilmiy darajalariga daʼvogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi boʻyicha oliy taʼlimdan keyingi taʼlim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa taʼlim tashkilotlarida oliy taʼlimdan keyingi taʼlim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

15. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish – kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

16. Maktabdan tashqari ta'lim – bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, shuningdek, tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

17. Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

18. Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institusionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

19. Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan

va rejalashtirilgan bo‘lib, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta’limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

20. **Informal ta’lim** aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta’limdan ko‘ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga olishi mumkin.

21. **Ta’lim olish shakllari** quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta’lim;

oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;

katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;

inklyuziv ta’lim;

eksternat tartibidagi ta’lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

22. **Masofaviy ta’lim** – masofaviy ta’lim o‘quv rejaları va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

23. **Dual ta’lim** – ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

24. **Inklyuziv ta’lim** – alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan tg imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

25. **Eksternat tartibidagi ta'lim** – eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim olishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

26. **Ta'lim tashkilotlari o'quvchilari (talabalari) soni** – o'quv yili boshida umumta'lim tashkilotlarida, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tashkilotlarida va oliy ta'lim tashkilotlarida ro'yxatda turgan o'quvchilar (talabalar) soni. Statistika hisobotlarida o'quvchilar (talabalar) soni to'g'risidagi ma'lumotlar hududlar, ta'lim tashkilotlari turlari, mutaxassisliklarning tarmoq guruhlari, sinflar (kurslar), jinsi, o'qitish tili va hokazolar bo'yicha keltirilgan. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar o'quvchilarining umumiy soniga ushbu ta'lim tashkilotlarining tayyorlov sinflaridagi o'quvchilar ham qo'shiladi;

27. **O'qishga kirish uchun nazariy yosh** bu – mazkur yosh uchun mo'ljallangan ta'limning eng quyi bosqichidan o'qishni boshlashi nazarda tutilgan, o'qish davri mobaynida to'liq kun o'qib, ikkinchi yilga qolmasdan va qandaydir sinfni, kursni o'tkazib yubormasdan mazkur kursda o'qishni tamomlaydigan ma'lum bir ta'lim dasturi bo'yicha yoki ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar o'qishni boshlaydigan yosh. Ma'lum bir dastur yoki ta'lim bosqichi bo'yicha o'qishni boshlashning nazariy yoshi ta'lim olishning amaldagi yoshidan farq qilishi mumkinligini inobatga olish kerak.

28. **Ta'lim tashkilotiga qabul** – ushbu o'quv yilida birinchi yil o'qish uchun qabul qilingan shaxslar soni ko'rsatkichi. Qabul qilinganlar soniga ikkinchi yilga qoldirilganlar va ilgari o'qib qaytib kelgan shaxslar qo'shilmaydi;

29. **Ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari** – ta'lim tashkilotida o'quv kursini to'liq tamomlagan va munosib ta'lim olgan (mutaxassislikka ega bo'lgan) shaxslar soni;

30. **Pedagogik xodimlar soni** – oliy yoki o'rta maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish bilan shug'ullanayotgan shaxslar soni.

2- bob. TXST–2011 ga muvofiq ta'lim darajalari

31. **Ta'lim darajasi** – o'quv tajriba bosqichlariga muvofiq ravishda ta'lim dasturlarini tasniflovchi tartibga solingan toifalar to'plami, shuningdek, ta'lim dasturi berishi nazarda tutilgan ko'nikma va vakolatlaridir. TXST bo'yicha ta'lim

darajasi TXST–2011 xalqaro standarti tasnifiga muvofiq ravishda aniqlanadigan asosiydan to murakkabigacha bo‘lgan ta’lim dasturlari mazmunining murakkablik darajasi va ixtisosliklarini aks ettiradi. O‘z navbatida, “ta’lim darajasi” TXST ta’lim darajasini yakunlab yanada yuqori bosqichlariga o‘tishga imkon berishini bildiruvchi daraja va “toifa osti” bo‘yicha yo‘nalishlarini aniqlaydigan “toifa”ni o‘z ichiga oladi.

Quyida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi milliy standartlariga mos keluvchi ta’lim darajalari keltirilgan:

32. TXST 0-darajasi (Maktabgacha ta’lim va tarbiya) kichik yoshdagi bolalarning bilim olishi, jismoniy, ijtimoiy va his-tuyg‘ularining rivojlanishi uchun kompleks yondashuv asosida o‘qitish va ta’lim berish faoliyatini, shuningdek, kichik yoshdagi bolalarni o‘quv faoliyatiga va boshlang‘ich ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qishga kirishi uchun tayyorlash maqsadida, ularni oila sharoitidan ajralgan holda tashkillashtirilgan ta’lim berish bilan tanishtirishni nazarda tutadi;

33. TXST 1-darajasi (boshlang‘ich ta’lim) kichik, asosan o‘qish, yozish va matematika (ya’ni savodxonlik va hisoblash)ning asosiy ko‘nikmalarini o‘rgatishga, bilimning asosiy sohalarini tushunish va o‘rganish uchun, shaxsning rivojlanishi uchun, o‘rta ta’limning birinchi bosqichida o‘qishga tayyorlash uchun jiddiy asos yaratishga yo‘naltirilgan o‘quv va ta’lim faoliyatini nazarda tutadi. Bunda o‘qitish, murakkabligi jihatdan eng quyi ixtisoslikdagi tayanch darajada ta’lim olishga yo‘naltirilgan (agar shunaqasi mavjud bo‘lsa);

34. TXST 2-darajasi (tayanch o‘rta ta’lim) tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq, ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o‘rta ta’lim doirasida (VII sinfdan so‘ng) ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi.

35. TXST 3-darajasi (O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim) o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek, ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi. Bu darajadagi dasturlar o‘rta ta’limning ikkinchi bosqichi (TXST 2-darajasi) dasturiga nisbatan o‘quvchilarga turli xil, ixtisoslashtirilgan va fanlarni chuqurlashtirilgan darajada o‘rganishni taklif etadi. Umumiy o‘rta ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo‘lgan o‘n bir yil davomida amalga oshiriladi. O‘rta maxsus ta’lim akademik litseylarda to‘qqiz yillik tayanch

oʻrta taʼlim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va taʼlim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim olishini taʼminlaydi.

36. TXST 4- darajasi (Oʻrta professional taʼlim) oʻrta professional taʼlim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki toʻlov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha boʻlgan kunduzgi, kechki va sirtqi taʼlim shakllari boʻyicha umumiy oʻrta, oʻrta maxsus taʼlim hamda boshlangʻich professional taʼlim negizida amalga oshiriladi.

37. TXST 5- darajasi (Oʻrta maxsus, professional taʼlim). Oʻrta maxsus professional taʼlim texnikumlarda umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, boshlangʻich professional va oʻrta professional taʼlim negizida davlat buyurtmasi yoki toʻlov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil boʻlgan kunduzgi, kechki va sirtqi taʼlim shakllari boʻyicha amalga oshiriladi. Oliy taʼlim tizimi bilan integratsiyalashgan boʻlib, oliy taʼlim tashkilotlari huzurida faoliyat koʻrsatadi.

38. TXST 6- darajasi (oliy taʼlimning birinchi bosqichi “bakalavriat”) bakalavriat oliy taʼlim yoʻnalishlaridan biri boʻyicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va koʻnikmalar beradigan, oʻqish davomiyligi kamida uch yil boʻlgan tayanch oliy taʼlimdir.

39. TXST 7- darajasi (oliy taʼlimning ikkinchi bosqichi “magistratura”) magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik boʻyicha oʻqish davomiyligi kamida bir yil boʻlgan oliy taʼlimdir.

40. TXST 8- darajasi (oliy taʼlimdan keyingi taʼlim) – mazkur darajadagi dasturlar eng avvalo ilmiy tadqiqotlar sohasida, yaʼni chuqurlashtirilgan va mustaqil tadqiqotlarga bagʻishlangan eng yuqori malakaga yetkazish uchun ishlab chiqilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi milliy taʼlim dasturlarining TXST–2011 ga muvofiq tasniflanishi 1-ildovada keltirilgan. Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim bosqichlari va YUNESKOning “Taʼlimning xalqaro standart tasniflagichi (International Standard Classification of Education (ISCED-2011))” darajalari oʻrtasidagi muvofiqlik jadvali 2-ildovada keltirilgan.

3-bob. Ta'lim statistikasi bo'yicha nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash usullari

41. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonini 1-6 yoshdagi aholi soniga (6 yoshdagi umumta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya olayotganlarni ayirgan holda) bo'lib 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 13- maydagi 391-qaroriga muvofiq, ikki yoshgacha bo'lgan bolalar aksariyat hollarda onasi qarovida bo'lishi sababli statistika amaliyotida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha hisoblashlar qo'llaniladi. Bunda, hisoblash xuddi 1-6 yoshdagi bolalar uchun bo'lgan holat kabi amalga oshiriladi.

42. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 100 o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonini ulardagi o'rinlar soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

43. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar bilan ta'minlanganligi (1000 bolaga to'g'ri keladigan o'rinlar) – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar sonini 1-6 yoshdagi aholi soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

44. Umumta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kuni uzaytirilgan guruhlar bilan qamrab olish – kuni uzaytirilgan guruhlariga qatnovchi o'quvchilar sonini umumta'lim tashkilotlarining 1-11-sinflari o'quvchilari (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilarisiz) soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

45. Umumta'lim tashkilotlari sinflarining o'rtacha to'ldirilganligi – ma'lum bir sinf guruhlaridagi o'quvchilar sonini ushbu sinf guruhlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

46. Umumta'lim tashkilotlari faoliyatining smenaliligi – umumta'lim tashkilotlari faoliyatining smenalilik darajasi to'g'risidagi ko'rsatkichlar birinchi, ikkinchi, uchinchi smenada ishlovchi umumta'lim tashkilotlari koeffitsiyenti, shuningdek, birinchi, ikkinchi va uchinchi smenalarda shug'ullanuvchi o'quvchilar sonining koeffitsiyenti orqali namoyon bo'ladi. Umumta'lim tashkilotlari faoliyatining smenaliligini hisoblash jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktablarsiz amalga oshiriladi.

47. Bir o'quvchiga to'g'ri keladigan umumta'lim tashkilotlarining sinf xonalari maydoni – o'quv kabinetlari va laboratoriyalarini qo'shgan holda sinf xonalari maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar birinchi smenada shug'ullanuvchi

hisoblangan o'quvchilar soniga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) bo'linadi.

48. Umumta'lim tashkilotlarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni – 1-11-sinflar o'quvchilari sonini o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

49. Ta'lim tashkilotlaridagi oliy ma'lumotli o'qituvchilar koeffitsiyenti – oliy ma'lumotli o'qituvchilar sonini o'qituvchilarning (o'rindoshlarsiz) umumiy soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

50. O'qituvchi-ayollar koeffitsiyenti – o'qituvchi ayollar sonini o'qituvchilarning (o'rindoshlarsiz) umumiy soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

51. Umumta'lim muassasalarida 100 nafar o'quvchiga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni – umumta'lim muassasalari umumiy kompyuterlar sonini o'quvchilarning umumiy soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

52. Internet tarmog'iga ulangan umumta'lim muassasalarining koeffitsiyenti – umumta'lim muassasalaridagi internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar sonini umumta'lim muassasalar soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

53. O'rtacha bitta kompyuterga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni – umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar sonini umumta'lim muassasalaridagi kompyuterlar soniga bo'linadi.

54. Elektr energiyasi bilan ta'minlangan umumta'lim muassasalarining koeffitsiyenti – elektr energiyasi bilan ta'minlangan umumta'lim muassasalari sonini jami umumta'lim muassasalar soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

55. 10 ming aholiga nisbatan hisoblangan boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim yoki oliy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari (talabalari) soni – o'quv yili boshida boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim yoki oliy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari (talabalari) sonini kalendar yili boshidagi aholi soniga bo'lib, 10000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

56. 10 ming aholiga nisbatan hisoblangan boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim yoki oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari soni – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim yoki oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari sonini mazkur yildagi o'rtacha aholi soniga bo'lib, 10000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

57. Aholini boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olishning umumiy koeffitsiyenti (TXST 1 darajasi) – yoshidan qat'iy nazar umumta'lim muassasalari 1-4-sinflar o'quvchilari sonini 7-10 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 7-10 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

58. Aholini boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olishning sof koeffitsiyenti (TXST 1-darajasi) – umumta'lim muassasalarining 7-10 yoshdagi 1-4-sinflar o'quvchilari sonini 7-10 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 7-10 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

59. Aholini tayanch o'rta ta'lim bilan qamrab olishning umumiy koeffitsiyenti (TXST 2-darajasi) – yoshidan qat'i nazar umumta'lim muassasalari 5-9-sinflar o'quvchilari sonini 11-15 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 11-15 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

60. Aholini tayanch o'rta ta'lim bilan qamrab olishning sof koeffitsiyenti (TXST 2-darajasi) – umumta'lim muassasalarining 11-15 yoshdagi 5-9-sinflar o'quvchilari sonini 11-15 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 11-15 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

61. Aholini o'rta va o'rta maxsus ta'lim bilan qamrab olishning umumiy koeffitsiyenti (TXST 3-darajasi) – yoshidan qat'i nazar, akademik litsey, kasb-hunar maktablari va umumta'lim muassasalari 10-11 sinflar o'quvchilari sonini 16-17 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 16-17 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

62. Aholini o'rta va o'rta maxsus ta'lim bilan qamrab olishning sof koeffitsiyenti (TXST 3 darajasi) – 16-17 yoshdagi akademik litsey, kasb-hunar maktablari va umumta'lim tashkilotlarining 10-11 sinf o'quvchilari sonini 16-17 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 16-17 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

63. Aholini professional ta'limi bilan qamrab olish umumiy koeffitsiyenti (TXST 4-darajasi) – yoshidan qat'i nazar kollejlarda va texnikumlar talabalari sonini 18-19 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 18-19 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

64. Aholini professional ta'limi bilan qamrab olish sof koeffitsiyenti (TXST 4-darajasi) – 18-19 yoshdagi kollejlarda va texnikumlar talabalari sonini

18-19 yoshdagi yil boshidagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 18-19 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

65. Aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish umumiy koeffitsiyenti (TXST 6 va 7 darajasi) – yoshidan qat'iy nazar oliy ta'lim tashkilotlari talabalari sonini yil boshidagi 18-23 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 18-23 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

66. Aholini oliy ta'lim bilan qamrab olishning sof koeffitsiyenti (TXST 6 va 7-darajasi) – 18-23 yoshdagi oliy ta'lim tashkilotlari talabalari sonini yil boshidagi 18-23 yoshdagi aholi soniga (TXSTning boshqa darajalarida ta'lim olayotgan 18-23 yoshlilarni ayirgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

67. Oliy ta'lim tashkilotlari konkursi (100 o'ringa berilgan arizalar) – oliygohga kirganlar (qabul qilinganlar) sonini ariza berganlar (abituriyentlar) soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Bunda, ushbu ko'rsatkich bakalavriat va magistratura bo'yicha alohida hisoblanadi.

68. Oliy ta'lim tashkilotlarida 100 nafar talabaga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni – Oliy ta'lim tashkilotlaridagi umumiy kompyuterlar sonini talabalarining umumiy soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

69. O'rtacha bitta kompyuterga to'g'ri keladigan talabalar soni – oliy ta'lim tashkilotlaridagi talabalar sonini oliy ta'lim tashkilotlaridagi kompyuterlar soniga bo'linadi.

70. Ta'limning ma'lum bir bosqichi yoki bosqichining pog'onasiga birinchi marta kirayotganlar bu – ta'limning ma'lum bir bosqichida o'zining o'qishini birinchi marta boshlayotgan o'quvchilar (talabalar). Birinchi marta kirayotganlar soni birinchi sinf/kurs o'quvchilari soniga, agar ushbu toifa o'z ichiga ikkinchi yilga qoldirilganlarni qo'shgan bo'lsa, to'g'ri kelmasligi mumkin.

71. Ikkinchi yilga qoldirilganlar bu – biror bir sinfda, biror bir kursda o'quv kursini takroriy ravishda o'tayotgan o'quvchilar (talabalar). Sinf bu (kurs) – bir o'quv yili muddatiga tg bo'lgan ta'lim olish bosqichi.

72. Ta'limning yanada yuqori darajasiga o'tish – o'tgan o'quv yilida avvalgi ta'lim davri yoki darajasining oxirgi sinfida ro'yxatga olingan o'quvchilar sonini ta'limning ma'lum bir yanada yuqori sikli yoki darajasida birinchi sinfga qabul qilinganlar soniga (mazkur sinf yoki darajadagi ikkinchi yilga qoldirilganlar sonini hisobga olib o'zgartirish kiritilgan holda) bo'lib 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

73. 16 (25) yosh va undan katta yoshdagi aholining ta'lim darajasi – TXST mezonlariga muvofiq ravishda ta'limning ma'lum darajasiga yetgan 16 (25) yosh va katta yoshdagi aholi soni hamda hech qanday ta'lim darajasiga ega bo'lmagan, biroq o'qish va yozish ko'nikmalarini egallagan aholi sonining yig'indisini mazkur yosh guruhiga kiruvchi aholining umumiy soniga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

74. 16 (25) yosh va undan katta yoshdagi aholining ta'lim darajasi – TXST mezonlariga muvofiq ravishda ta'limning eng yuqori darajasini egallagan 16 (25) yosh va katta yoshdagi aholini foizda taqsimlanishi orqali aniqlanadi.

Aholining savodxonlik va ta'lim darajasini hisoblash uchun ma'lumotlar manbai bo'lib, aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari hisoblanadi yoki muqobil usul sifatida uy xo'jaliklari kuzatuv natijalaridan foydalanish mumkin.

75. Kutilayotgan ta'lim davomiyligi – aholini ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha amaldagi yosh koeffitsiyentlari o'zgarmagan taqdirda maktabga qatnash uchun rasman belgilangan yoshga yetgan bolaning ta'limning har bir bosqichida o'qishga sarflashi mumkin bo'lgan yillari soni.

Kutilayotgan ta'lim davomiyligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$EYS = \sum_{i=a}^n \frac{E_i^t}{P_i^t}$$

EYS - kutilayotgan ta'lim davomiyligi (Expected Years of Schooling);

E_i^t - t o'quv yilida i yoshdagi o'quvchilar soni (bunda $i = a, a+1, \dots, n$);

n ta'lim olishning nazariy jihatdan yuqori yosh chegarasini bildiradi;

P_i^t - t o'quv yilida i yoshdagi aholi soni.

Kutilayotgan ta'lim davomiyligini hisoblashning shartli misoli 5-ilovada keltirilgan.

76. O'rtacha ta'lim davomiyligi – TXST ga muvofiq, aholining ta'lim darajasi ko'rsatkichiga asosan hisoblanib, har bir darajada olingan ta'limning nazariy muddatlariga asosan ta'lim olingan yillar soniga qayta hisoblangan 25 yosh va undan katta yoshdagi shaxslarning hayoti davomida ta'lim olgan o'rtacha yillari miqdori.

O'rtacha ta'lim davomiyligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$MYS = \sum_l HS_l * YS_l$$

MYS – o'rtacha ta'lim davomiyligi (Mean Years of Schooling);

HS_l – ta'lim darajasi eng yuqori l darajasiga yetgan y yosh guruhidagi aholining ulushi;

YS_t – I ta'lim darajasining rasmiy muddati;

O'rtacha ta'lim davomiyligini hisoblashning shartli misoli 6-ildavada keltirilgan.

77. **Ta'lim indeksi** (Education index–EI) - o'rtacha ta'lim davomiyligi (MYS) va kutilayotgan ta'lim davomiyligi (EYS) asosida hisoblanadi.

O'lchov indekslarini yaratish

Minimal va maksimal qiymatlar (maqsadli qiymatlar) turli o'lchov birliklarida ifodalangan ko'rsatkichlarni 0 dan 1 gacha bo'lgan indekslarga aylantirish uchun o'rnatiladi. Ushbu maqsadli qiymatlar mos ravishda “tabiiy nollar” va “intilishli maqsadlar” vazifasini bajaradi, ulardan tarkibiy ko'rsatkichlar standartlashtiriladi.

Ta'lim indeksini hisoblashda quyidagi qiymatlar o'rnatilgan:

Indikator	Minimum	Maksimum
Kutilayotgan ta'lim davomiyligi (yillar)	0	18
O'rtacha ta'lim davomiyligi (yillar)	0	15

Jamiyatlar kamida 0 yillik ta'limni oqlaydigan rasmiy ta'limsiz mavjud bo'lishi mumkin. Maksimal kutilayotgan ta'lim davomiyligi 18 yil bo'lib, aksariyat mamlakatlarda 18 yillik ta'lim bilan magistr darajasigacha yetishish mumkin. O'rtacha ta'lim davomiyligining maksimal o'rtacha qiymati – 15 yil, bu 2025-yilgacha prognoz qilingan maksimal o'rtacha ta'lim davomiyligini ifoda etadi.

“Kutilayotgan ta'lim davomiyligi”ni 18 ga bo'lish yo'li bilan va “O'rtacha ta'lim davomiyligi”ni 15 ga bo'lish yo'li bilan indekslanadi.

Indeks formulasi quyidagicha:

$$I = \frac{A_q - Min_q}{Max_q - Min_q}$$

bu yerda

I - indeks;

A_q - amaldagi qiymat;

Max_q - maksimal qiymat;

Min_q – minimal qiymat.

Ta'lim indeksini hisoblash uchun birinchi navbatda ikkita ko'rsatkich (EYS va MYS)ning har biriga indeks tenglamasi qo'llaniladi, so'ngra olingan ikkita ko'rsatkichning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi. Ikki ta'lim indeksining o'rtacha arifmetik qiymatidan foydalanish kutilayotgan ta'lim davomiyligi va o'rtacha ta'lim davomiyligi uchun mukammal proksi-ko'rsatkichni olish imkonini beradi.

Ta'lim indeksi ikki indeksning o'rtacha qiymatini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$EI = \frac{\frac{EYS}{18} + \frac{MYS}{15}}{2}$$

Ta'lim indeksini hisoblashning shartli misoli:

$$Expected\ Years\ of\ Schooling\ index = \frac{12,4 - 0}{18 - 0} = 0,689$$

$$Mean\ Years\ of\ Schooling\ index = \frac{12,8 - 0}{15 - 0} = 0,853$$

$$Education\ index = \frac{0,689 + 0,853}{2} = 0,771$$

Ta'lim indeksi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (UNDP) tomonidan har 2 yilda bir marotaba e'lon qilib boradigan "Inson kamoloti indeksi" (HDI) hisobotida subindeks sifatida foydalaniladi.

78. Ta'limning yanada yuqori darajasiga o'tish – o'tgan o'quv yilida avvalgi ta'lim davri yoki darajasining oxirgi sinfida ro'yxatga olingan o'quvchilar sonini ta'limning ma'lum bir yanada yuqori sikli yoki darajasida birinchi sinfga qabul qilinganlar soniga (mazkur sinf yoki darajadagi ikkinchi yilga qoldirilganlar sonini hisobga olib o'zgartirish kiritilgan holda) bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

4-bob. Statistika ma'lumotlarini tarqatish

Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq, ta'lim statistikasiga oid ma'lumotlar shakllantirilib, quyidagi ko'rinishlarda taqdim etiladi:

Statistika byulletenlari:

"Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari" yillik statistika byulleteni;

“Shahar va tumanlar bo'yicha umumta'lim tashkilotlari va umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari” yillik statistika byulleteni;

“Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tashkilotlari va akademik litseylar” yillik statistika byulleteni;

“Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini rivojlantirishining asosiy ko'rsatkichlari” yillik statistika byulleteni;

“O'zbekiston Respublikasining ilmiy-texnikaviy salohiyati va innovatsiyalar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari” yillik statistika byulleteni;

Yillik statistika to'plamlari:

O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami;

O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi;

O'zbekiston raqamlarda;

O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi;

O'zbekistonda mehnat va bandlik;

O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari;

O'zbekistonda ta'lim;

O'zbekistonda sog'liqni saqlash;

Ayollar va erkaklar;

O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat.

Nashrlar orqali bosma shaklda foydalanuvchilarga taqdim etib boriladi.

Xalqaro tashkilotlarning savolnomalariga muvofiq taqdim etiladigan statistika ma'lumotlari.

YUNESKO statistika institutining Rasmiy ta'lim bo'yicha savolnomalari:

- Milliy ta'lim tizimi;
- O'quvchilar va o'qituvchilar (TXST 0-4);
- O'quvchilar va o'qituvchilar (TXST 5-8);

Shuningdek,

- Ta'lim darajasi statistikasi bo'yicha savolnoma;
- Savodxonlik statistikasi bo'yicha savolnoma;

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari statistikasi bo'yicha savolnoma.

Bundan tashqari, rasmiy statistika ma'lumotlari quyidagi shakllarda tarqatiladi:

Press-relizlar;

Axborotnomalar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb saytida tahliliy materiallar.

Rasmiy statistika ma’lumotlaridan foydalanuvchilarga, statistika organlari tomonidan shakllantiriladigan rasmiy statistika ma’lumotlarini taqdim etish va tarqatish tartibiga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so‘rovlari asosida ham taqdim etiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar


79. Uslubiy nizom statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o‘tkazishning asosiy bosqichlariga mos keluvchi ketma-ketlikda ifoda etilgan bo‘lib, ta’lim sohasiga oid ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli statistika ma’lumotlarini shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan.

80. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 23.09.2020- y. O'RQ 464-I son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi Qonuni 16.12.2019- y. O'RQ 595-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. PF-5812 06.09.2019- y.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari va Davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 157-son qarori. 27.03.2024- y.
5. YUNESKO statistika instituti tomonidan 2013- yilda chop etilgan "Ta'limning xalqaro standart tasniflanishi (TXST-2011)"
6. YUNESKO statistika instituti tomonidan 2014- yilda chop etilgan "Ta'lim sohasi va kasbiy tayyorgarlik (TXST-2013)"
7. YUNESKO statistika instituti tomonidan 2016- yilda chop etilgan "Rasmiy ta'lim haqida umumiy ma'lumot berish bo'yicha qo'llanma"
8. YUNESKO statistika instituti ("Rukovodstvo po otsenke informatsionno-kommunikatsionnykh tekhnologiy (IKT) v obrazovanii" Institut Statistiki YUNESKO P.O. Box 6128, Succursale Centre-Ville Montreal, Quebec H3C 3J7 Canada, Opublikovano 2011 g.)
9. Human Develoment Report 2023/2024 technical notes.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim bosqichlarini TXST-2011 ga muvofiq tasniflanishi



**O'zbekiston Respublikasining ta'lim bosqichlari va YUNESKOning
“Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (International Standard
Classification of Education (ISCED-2011))” darajalari
o'rtasidagi muvofiqlik jadvali**

ISCED-2011 darajalari	ISCED-2011 ta'lim dasturlari	O'zbekiston Respublikasining ta'lim bosqichlari
0	Kichik yoshdagi bolalar ta'limi	Maktabgacha ta'lim va tarbiya
1	Boshlang'ich ta'lim	Boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar)
2	O'rta ta'limning birinchi bosqichi	Tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar)
3	O'rta ta'limning ikkinchi bosqichi	O'rta ta'lim (X — XI sinflar) O'rta maxsus ta'lim Boshlang'ich professional ta'lim
4	Umumiy o'rta ta'limdan keyingi ta'lim	O'rta professional ta'lim
5	Oliy ta'limning qisqa sikli	O'rta maxsus professional ta'lim
6	Bakalavriat yoki unga tenglashtirilgan	Bakalavriat
7	Magistratura yoki unga tenglashtirilgan	Magistratura
8	Doktorlik tadqiqotlari yoki unga tenglashtirilgan	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim: tayanch doktorantura (Doctor of Philosophy) (PhD); doktorantura (Doctor of Science) (DSc).
9	Tasniflanmaydi	Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda maktabdan tashqari ta'lim

Ta'lim statistikasi bo'yicha
uslubiy nizomga
3-ILOVA

Ta'lim statistikasiga oid ma'lumotlar manbai

Ta'lim turlari	Ma'lumotlar manbai	Kim tomonidan taqdim etiladi
Maktabgacha ta'lim	Maktabgacha ta'lim agentligining ma'lumotlar bazasi	Maktabgacha ta'lim agentligi
Umumiy o'rta ta'lim	1 umumta'lim shakli "Umumta'lim tashkilotining hisoboti" statistika hisoboti	Umumiy o'rta ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar
Professional ta'lim	1 o'rta ta'lim shakli "Akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlari hisoboti" statistika hisobot shakli	Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus, profesional ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar
Oliy ta'lim	1 oliy ta'lim shakli "Oliy ta'lim tashkilotining hisoboti" statistika hisobot shakli	Oliy ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	1 fan "Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajarilishi hamda oliy toifali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash to'g'risida hisobot" statistika hisobot shakli	Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar
Maktabdan tashqari ta'lim	1 ta'lim (maktabdan tashqari) shakli "Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotining hisoboti" statistika hisoboti shakli	Maktabdan tashqari ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar
Norasmiy ta'lim	1 KB shakli yillik "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" statistika hisoboti shakli	Mikrofirma va kichik korxonalar
	Musiqqa va san'at maktablari faoliyati to'g'risida idoralarning ma'lumotlari	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
	Aholining savodxonlik va ta'lim darajasi	Uy xo'jaliklari kuzatuv, aholini ro'yxatga olish kuzatuvlari ma'lumotlari

Ta'lim statistikasi bo'yicha
uslubiy nizomga
4-ILOVA

Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik sohalari (TXST – 0 2013)

Fan sohasi	Yo'nalish
00. Umumiy dasturlar va malakalar	001. Tayanch dasturlar va malakalar 002. Savodxonlik va sanash ko'nikmalari 003. Shaxsiy ko'nikmalar va shaxsning rivojlanishi
01. Ta'lim	011. Ta'lim
02. San'at va gumanitar fanlar	021. San'at 022. Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) 023. Tillar
03. Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot	031. Ijtimoiy va i bixevioristik fanlar 032. Jurnalistika va axborot
04. Biznes, boshqaruv va huquq	041. Biznes va boshqaruv 042. Huquq
05. Tabiiy fanlar, matematika va statistika	051. Biologik va aralash fanlar 052. Atrof olam 053. Fizikaviy fanlar 054. Matematika va statistika
06. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)	061. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)
07. Muhandislik, qayta ishlash va qurilish tarmoqlari	071. Muhandislik va muhandislik ishi 072. Ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari 073. Arxitektura va qurilish
08. Qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligi va vyetyerinariya	081. Qishloq xo'jaligi 082. O'rmon xo'jaligi 083. Baliqchilik xo'jaligi 084. Vyetyerinariya
09. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot	091. Sog'liqni saqlash 092. Ijtimoiy ta'minot
10. Xizmatlar	101. Xizmat ko'rsatish 102. Ishlab chiqarishda gigia va mehnat muhofazasi 103. Xavfsizlik xizmatlari 104. Transport xizmatlari

Ta'lim statistikasi bo'yicha
uslubiy nizomga
5-ILOVA

Kutilayotgan ta'lim davomiyligi (Expected years of schooling)ni hisoblashning shartli misoli

Yoshi	Doimiy aholi soni 01.01. 2023- yil holatiga, kishi	Ta'lim turlari bo'yicha oquvchi va talabalar soni, kishi							Tegishli yoshdagi ta'lim oluvchilarni, aholining tegishli yoshdagi soniga bo'linganda hosil bo'lgan indeks $(9=(2+3+4+5+6+7+8)/1)$
		TXST-1-2-3	TXST-3	TXST-3	TXST-4	TXST-5	TXST-6-7	TXST-8	
		Maktabda tahsil olayotganlar, o'quvchilar yoshi bo'yicha jami	Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar	Kasb-hunar maktablari da tahsil olayotgan o'quvchilar	Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar	Texnikum-larda tahsil olayotgan o'quvchilar	Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar (bakalavriat+ magistratura)	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotganlar	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	
0	912 077								
1	885 099								
2	834 333								
3	791 293								
4	739 392								
5	689 012								
6	712 159								
7	719 858	702 445							0,98
8	703 156	635 048							0,90
9	663133	643 807							0,97
10	634 883	608 494							0,96
11	622 531	608 799							0,98
12	636 637	622 185							0,98

Yoshi	Doimiy aholi soni 01.01. 2023- yil holatiga, kishi	Ta'lim turlari bo'yicha oquvchi va talabalar soni, kishi							Tegishli yoshdagi ta'lim oluvchilarni, aholining tegishli yoshdagi soniga bo'linganda hosil bo'lgan indeks $(9=(2+3+4+5+6+7+8)/1)$
		TXST-1-2-3	TXST-3	TXST-3	TXST-4	TXST-5	TXST-6-7	TXST-8	
		Maktabda tahsil olayotganlar, o'quvchilar yoshi bo'yicha jami	Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar	Kasb-hunar maktablari da tahsil olayotgan o'quvchilar	Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar	Texnikum-larda tahsil olayotgan o'quvchilar	Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar (bakalavriat+ magistratura)	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotganlar	
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
13	649 821	633 331							0,97
14	642 128	614 164							0,96
15	601 881	569 449	3 301	11 165	9	4			0,97
16	546 956	440 876	15 548	84 074	399	246			0,99
17	522 629	353 919	11 725	74 365	1 851	2 646	28 054		0,90
18	529 441	6 905	1 815	12 894	8 773	17 482	117 583		0,31
19	496 495		29	1 578	84 112	98 624	137 397		0,65
20	518 538						129 831		0,25
21	497 836						113 701		0,23
22	509 895						95 175		0,19
23	524 782						73 706		0,14
24	529 629						58 305	37	0,11
25-30	3 734 141						233 430	2 556	
31+	16 177 212						54 918	4 172	
Jami	3 602 4947	6439422	32 418	184 076	95 144	119 002	1 042 100	6 765	12,4

$0,98+0,90+0,97+0,96+0,98+0,98+0,97+0,96+0,97+0,99+0,90+0,31+0,65+0,25+0,23+0,19+0,14+0,11= 12,4$

Ushbu shartli misolga muvofiq, kutilayotgan ta'lim davomiyligi 12,4 yilni tashkil etadi.

Ta'lim statistikasi bo'yicha
uslubiy nizomga
6-ILOVA

O'rtacha ta'lim davomiyligini hisoblashning shartli misoli (yil)

Ta'lim darajalari	Eng yuqori ta'lim darajasiga ega bo'lgan 25 yosh va undan katta aholi ulushi	Ta'lim olish davomiyligi, yil	O'rtacha ta'lim davomiyligi, yil
<i>L</i>	<i>HS</i>	<i>YS</i>	<i>MYS = HS / YS</i>
Boshlang'ich ta'lim	0,001	4	0,004
To'liqsiz o'rta talim	0,079	9	0,711
To'liq o'rta ta'lim	0,370	11	4,070
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim	0,250	12	4,716
Oliy ta'limi	0,157	18	2,826
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	0,143	3	0,429
Yig'indisi (Σ)	1,000	x	12,756